

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**JABBARBERGENOV TIMUR RUSTEMOVICH**

**ZAMONAVIY QORAQALPOG‘ISTON YOSHLARI BO‘SH VAQTINING  
ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

<b>Jabbarbergenov Timur Rustemovich</b> Zamonaviy Qoraqalpog‘iston yoshlari bo‘sh vaqtining etnomadaniy xususiyatlari.....	3
<b>Жаббарбергенов Тимур Рустемович</b> Этнокультурные особенности досуга современной каракалпакстанской молодежи.....	27
<b>Jabbarbergenov Timur Rustemovich</b> Ethnocultural features of leisure activities of modern Karakalpakstan youth.....	51
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works.....</b>	56



**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**JABBARBERGENOV TIMUR RUSTEMOVICH**

**ZAMONAVIY QORAQALPOG‘ISTON YOSHLARI BO‘SH VAQTINING  
ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Tar 1153 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy- tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kurbanova Zemfira Ibragimovna**  
Tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Davlatova Saodat Tilovberdiyevna,**  
Tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Seydametova Gulnara Utarbaeva,**  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «14» VIII kuni soat 14,00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus sh., Ch. Abdirova ko'chasi, № 1. Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti) Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (345 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230100. Nukus shahri, Ch.Abdirova ko'chasi № 1. Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti. Tel: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» VII kuni tarqatildi (2025 yil «28» VII dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi).



**M.A.Karlibaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

**H.M.Otegenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**B.A.Koshanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Zamonaviy ilmiy diskurslarda yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etish va modernizatsiya jarayonlari ta'sirida ularning bo'sh vaqtda o'zlarini tutishi, xulq-atvorining transformatsiyasi masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammo o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab butun dunyo olimlarining tadqiqot markazida turadi. So'nggi yillarda Yevropa va AQShda yoshlar bo'sh vaqtining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qiziqish kuchaygani kuzatilmoqda. Bu boradagi nazariy tadqiqotlar zamonaviy yoshlarning, asosan, kun tartibi jadvalining to'yinganligini, shuningdek, bolalikdan o'smirlikga o'tish davrida bo'sh vaqtni o'tkazish usullarining o'zgarganligini tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan mazkur jihatlarni ochib beradigan empirik tadqiqotlar juda cheklanganligicha qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar umumiy aholi sonining 60 % ni tashkil etayotgan zamonaviy ijtimoiy kontekstida ushbu ijtimoiy-demografik guruhning bo'sh vaqtini o'tkazish amaliyotlarini o'rganish nihoyatda dolzarb ilmiy va amaliy vazifaga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda yoshlar masalasi mamlakatimizning yetakchi ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning diqqat markazini egallab kelmoqda.

Ijtimoiy fanlar doirasida yoshlar haqida umumiy yosh xususiyatlari asosida aniqlangan va atrofdagi ijtimoiy-madaniy muhitga maxsus moslashish jarayonini boshdan kechirayotgan yagona ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi barqaror tasavvur shakllangan. Shu bilan birga, yoshlik davrining yosh chegaralarini aniqlash bo'yicha faol ilmiy munozaralar davom etmoqda.

Bo'sh vaqtdagi muloqotning an'anaviy shakllarini tadqiq qilish xalq madaniyatini har tomonlama o'rganish zarurati bilan bog'liq, chunki ushbu komponent etnik-madaniy an'ananing ajralmas qismidir. Uni puxtalik bilan o'rganmasdan turib, u yoki bu etnik jamoaning etnografik tadqiqini yetarli darajada to'liq deb e'tirof etib bo'lmaydi. Mazkur kontekstda Qoraqalpog'istonda yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazish sohasi ijtimoiy antropologiya sohasida kam o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'p hollarda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan xalq bayramlari, marosimlari, o'yin va ko'ngilochar tadbirlari mintaqa madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Bo'sh vaqtdagi muloqotning ushbu an'anaviy shakllariga xos insonparvarlik salohiyatni anglash va tushunish zamonaviy yoshlar axloqiy va ma'naviy tarbiyasining asosini tashkil qilishi, barqaror xulq-atvor modellari, madaniy me'yorlar va qadriyatlarning shakllanishiga yordam berishi mumkin.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ 406-sonli Qonuni<sup>1</sup>, O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi № PF-6017 sonli "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, № PF-18 sonli "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/3026250>

tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>2</sup> farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30 iyundagi № PQ-4768 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2023-yil 7-apreldagi № PQ-114 sonli “Ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>3</sup> qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi № PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi<sup>4</sup> va 2024-yil 20-yanvardagi va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dissertatsiyada taqdim etilgan zamonaviy qoraqalpog‘istonlik yoshlar bo‘sh vaqtini o‘tkazish amaliyotlarining etnomadaniy xususiyatlarini o‘rganish masalasiga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili ushbu mavzuning Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy fanlararo tadqiqotlarida dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bugungi kunga qadar ushbu muammoning etno-madaniy jihatlarini batafsil o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy ishlar mavjud emas. Shunga qaramay, Qoraqalpog‘iston yoshlari bo‘sh vaqtini o‘tkazishining etnomadaniy o‘ziga xosligining ayrim jihatlarini umumiy ahamiyatga ega ishlarda ko‘rib chiqilgan.

Muallif, qo‘yilgan vazifalar va metodologik talablarga muvofiq, mazkur masala bo‘yicha adabiyotlarning ikkita asosiy guruhini ajratib ko‘rsatadi, bular: 1. Markaziy Osiyo tarixshunosligi. 2. Qoraqalpog‘iston tarixnavisligi.

Birinchi guruh adabiyotlari o‘ziga xos ehtiyojlari, qadriyatlarga yo‘nalganligi va xulq-atvor modellarida farq qiladigan ijtimoiy va yosh xususiyatlari bo‘yicha guruhlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan. Yoshlarning bo‘sh vaqtini o‘tkazish amaliyotini, ularning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlar ta‘sirida transformatsiyasini kompleks o‘rganish, shuningdek, yoshlar bo‘sh vaqtini tashkil etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish Markaziy Osiyo mintaqasida zamonaviy fanlararo tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoshlar bo‘sh vaqtini o‘tkazish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq masalalar quyidagi tadqiqotchilarning ishlarida o‘z aksini topgan. Xususan, B.Umarov va Sh. Jabbarov<sup>5</sup>, A.S.Gonashvili, A.N. Shopulatova, N.S Kasimova, N.N. Nazarov, F.M.Yakubov<sup>6</sup>, B. Ergashev<sup>7</sup>,

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/4880192?otherlang=4>; <https://lex.uz/ru/docs/6765719>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/4880123>; <https://lex.uz/docs/6426454>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/4880123>; <https://lex.uz/docs/6426454>

<sup>5</sup> Umarov B., Jabbarov Sh. Глобализация и этнос в Узбекистане. – Ташкент, 2011. – В. 5-12.

<sup>6</sup> Гонашвили А.С., Шопулатов А.Н., Касимова Н.С., Назаров Н.Н., Якубов Ф.М. Активный досуг узбекской молодежи в аспекте социологического анализа // Теория и практика физической культуры. – Т., 2020. - № 3. – 8 б.

<sup>7</sup> Эргашев Б. Молодежь Центральной Азии. Узбекистан (на основе социологического опроса). Алматы, 2016.

X.D. Xaknazarovlarning<sup>8</sup> ishlarida yoshlarning bo'sh vaqti masalalari ko'rib chiqilgan. Qozoqlarda yoshlar bo'sh vaqtini tashkil etishning an'anaviy va innovatsion shakllari Ye.S. Tastankulov va A.R. Daniyarova<sup>9</sup>, A.A. Mirzabekovalarning<sup>10</sup> tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilgan. Qirg'iz yoshlarining bo'sh vaqtdagi faoliyatining etnomadaniy jihatlarini A.Sh.Biyaliev<sup>11</sup>, R.I.Kusarboevlar<sup>12</sup> ishlarida o'z aksini topgan. Bo'sh vaqtning an'anaviy shakllari tojik xalqi madaniyatiga oid tadqiqotlarda D.N. Latipov<sup>13</sup>, B.S. Safaralievlar<sup>14</sup> ishlarida yoritilgan. Zamonaviy turkman yoshlarining bo'sh vaqtini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari A.Djikiyev<sup>15</sup>, X.Gudjиков<sup>16</sup> asarlarida yoritilgan.

Ushbu mualliflar Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoshlar bo'sh vaqtini o'tkazish amaliyotining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga katta hissa qo'shganlar.

Qoraqalpoqiston tarixshunosligida yoshlar mavzusi o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab rivojlana boshladi. Qoraqalpoq folklori va adabiyotining gumanistik g'oyalari, shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash masalalari I.B. Allaniyazov<sup>17</sup> tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu keng ko'lamli mavzuning ayrim jihatlariga boshqa olimlarning asarlarida ham to'xtalib o'tilgan. A.T.Bekmuratova yosh avlodning kundalik hayoti va oilaviy munosabatlariga oid masalalarni tadqiq qilgan<sup>18</sup>. X.Esbergenov va T.Atamuratovlar shahar sharoitida yoshlarning ko'ngilochar mashg'ulotlari, shuningdek, an'anaviy o'yinlarning ayrim turlariga to'xtalanganlar<sup>19</sup>. Qishloq joylarda bo'sh vaqtni faol o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar D.N. Sagindikov<sup>20</sup> tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Qoraqalpoq xalq o'yinlari P.Shilmanovning tadqiqotlari predmeti bo'lgan<sup>21</sup>. N.P. Lobacheva XX asr o'rtalarigacha bo'lgan qoraqalpoq yoshlari yig'inlarining ahamiyati va ularning oila-nikoh munosabatlarini tartibga solishdagi rolini qayd etgan<sup>22</sup>.

<sup>8</sup> Xaknazarov X.D. Ўзбекистон ёшларининг кундалик турмиш тарзи: Тар. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, 2018.

<sup>9</sup> Тастанкулов Е. С., Даниярова А. Р. Игры как досуг современной казахстанской молодежи // Вестник КазНУ. – Алматы, 2015. - № 2. – В. 141-145.

<sup>10</sup> Мырзабекова А.А. Особенности досуговых практик современной студенческой молодежи // Вестник КазНУ. Серия психологии и социологии. – Алматы, 2016. - №3. – В. 169-173.

<sup>11</sup> Биялиев А.Ш. Культурно-досуговая деятельность как фактор саморазвития студенческой молодежи Кыргызстана // Инновационная наука. – Уфа, 2020. - № 4. – В. 165-168.

<sup>12</sup> Кусарбаев Р.И. Теория и практика формирования культуры межнационального взаимодействия у студентов высших учебных заведений. – Челябинск, 2009.

<sup>13</sup> Латыпов Д.Н. Досуг как сфера формирования культуры межнациональных отношений // Проблемы национального и интернационального в развитии культуры Востока. – Душанбе, 1990. – В. 172-177.

<sup>14</sup> Сафаралиев Б. С. Из истории духовной культуры таджикского народа. – Челябинск, 2011.

<sup>15</sup> Джикиев А. Рухнама и традиционные туркменские праздники. – Ашхабад: Ылым, 2005. – 174 б.

<sup>16</sup> Гуджиков Х.Д. Воспитание студенческой молодежи на основе духовно-нравственных традиций туркменского народа // Молодой ученый. – Казань, 2019. - № 44. – В. 332-335.

<sup>17</sup> Алланиязов И.Б. Гуманистические идеи каракалпакского фольклора и литературы как основа нравственного воспитания старшеклассников: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 1992.

<sup>18</sup> Бекмуратова А.Т. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. – Нукус, 1970.

<sup>19</sup> Есбергенев Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. – Нукус, 1975; Есбергенев Х., Хошниязов Ж. Этнографические мотивы в каракалпакском фольклоре. – Т., 1988.

<sup>20</sup> Сагиндилов Д. Н. Совершенствование форм досуга и духовного общения сельских тружеников в условиях развитого социализма: Дис. ... канд. филос. наук. – Т., 1985.

<sup>21</sup> Шилманов П. Миллий балалар ойынлари. - Нокис, 1996.

<sup>22</sup> Лобачева Н.П. Из традиционного быта каракалпакской молодежи (по полевым материалам 1950-х годов) // Этнографическое обозрение. – М., 2003. - № 1. – 97 б.

Mazkur muammo bo'yicha tarixshunoslikning ikki davrini ilmiy tahliliga dissertatsiya ishining birinchi bobi bag'ishlangan bo'lib, unda muammoning o'rganilganlik darajasi batafsil tafsiflab berilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot O'zRFA QQB qoshidagi Gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq, "Qoraqalpoqlar an'anaviy madaniyati ekologik inqiroz va globallashuvning ta'siri ostida" (2021-2023) nomli fundamental loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy Qoraqalpog'iston yoshlari bo'sh vaqtlarining etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Qo'yilgan maqsad quyidagi **vazifalarni** shakllantirish va hal qilishni nazarda tutadi:

yoshlar va yoshlar madaniyatini tadqiq qilishning asosiy nazariy-metodologik yondashuv va konsepsiyalarni ko'rib chiqish;

yoshlarning yosh stratifikatsiyasini tavsiflash, ijtimoiy-yoshga oid atamalar bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish;

qoraqalpoq yoshlari bo'sh vaqtini tashkil etishning asosiy an'anaviy shakllari va ularning tarixiy-madaniy kelib chiqishini aniqlash va tahlil qilish;

Qoraqalpog'iston yoshlari bo'sh vaqti amaliyotining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

yoshlar bo'sh vaqti sohasi transformatsiyasiga globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarining ta'sirini, ular tomonidan bo'sh vaqtlarini o'tkazishning yangi formatlarini o'zlashtirilishini tahlil qilish.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlari bo'sh vaqtlarining o'ziga xos xususiyatlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Qoraqalpog'istonlik yoshlarning bayramlari, o'yinlari va bosh vaqtlarining norasmiy turlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Ushbu tadqiqotda quyidagi asosiy usullar qo'llanilgan:

Qiyosiy-tarixiy usul: bu yondashuv qoraqalpog'istonlik yoshlarning bo'sh vaqti hodisalarini tarixiy kontekstda ko'rib chiqish va ularning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

Tavsiflovchi va tizimli usullar: ular muammoning aniq jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish imkonini bergan holda, bo'sh vaqt amaliyotlarining mohiyatini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, material to'plash uchun dala etnografik usullardan foydalanilgan, bular:

Bevosita kuzatish, u yoshlar bo'sh vaqti haqiqiy amaliyotlarini tabiiy muhitda qayd etish imkonini bergan;

Interv'yu, u yoshlarning bo'sh vaqtida afzal ko'rgan narsalari haqida shaxsiy fikrlari va taassurotlarini aniqlash imkonini bergan.

Ko'rsatilgan usullarning kompleks qo'llanilishi turli manbalarni har tomonlama tahlil qilish va zamonaviy qoraqalpog'istonlik yoshlar bo'sh vaqtni o'tkazish amaliyotlariga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

*báysi, at shabis, kóqpar, aq súyek, ayqulash* kabi qoraqalpoq an'anaviy o'yinlari va ko'ngilochar tadbirlari yoshlar hayotida muhim o'rin tutganligi, ular vaqtni quvnoq o'tkazish bo'libgina qolmasdan, balki jismoniy ko'nikmalarning rivojlanishi, raqobat va jamoaviylik ruhini shakllantirishga yordam berganligi asoslangan. O'yinlar davomida ijtimoiy munosabatlarning umumiy qoidalari va me'yorlariga rioya qilish, an'ana va urf-odatlarining jamiyat madaniy hayotidagi muhim ahamiyatini ta'kidlaydi;

*otirispag, ziyapat, meylis* kabi qoraqalpoq yoshlari bo'sh vaqtining an'anaviy turlari, shuningdek, ularning muhim tarkibiy qismi bo'lmish *aytus* (aytishuv) hamda *tabispag* (boshqotirma) va *jumbaq* (topishmoq) kabi intellektual o'yinlar zamonaviy sharoitlarda urfdan qolganligi aniqlangan. Dam olishning an'anaviy shakllari o'rnini yangi, shahar turmush tarzi dinamikasiga ko'proq mos keladiganlari egallamoqda. Xususan, zamonaviy kompyuter o'yinlari, bo'sh vaqtni o'tkazishning virtual shakllari keng tarqalganligi aniqlangan;

shahar sharoitida yashovchi qoraqalpoq yoshlari bo'sh vaqtining asosiy yo'nalishlari va uning tarkibining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan bo'lib, ular quyidagi to'rt asosiy komponentga bo'linadi: jismoniy dam olish, intellektual dam olish, ijodiy dam olish va ijtimoiy dam olish. Shahar muhitining o'ziga xosligi qoraqalpoq yoshlarining bo'sh vaqtlari tashkil etilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, u undan hamma foydalanishi mumkinligi va xilma-xilligi bilan tavsiflanadi;

Qoraqalpog'iston yoshlari orasida yoshlarga madaniyatlararo muloqot qilish, turli mamlakatlar va mintaqalar odamlari bilan aloqa o'rnatish imkoniyatini beradigan Telegram, Facebook, Instagram va WhatsApp kabi ijtimoiy tarmoqlari eng ommabop ekanligi isbotlangan. Ushbu platformalar nafaqat axborot va madaniy qadriyatlar almashinuviga yordam beradi, balki yoshlarga o'z fikr va g'oyalarini ifoda etish, ijodi bilan o'rtoqlashish va hamfikrlarni topish imkonini beradi.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qoraqalpoq yoshlarining bo'sh vaqtini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalaridan yoshlar mavzusidagi keyingi umumlashtiruvchi ilmiy ishlarda foydalanish mumkin. Shuningdek olingan materiallar oliy ta'lim muassasalarida etnologiya fani bo'yicha o'quv kurslarini ishlab chiqishda ham qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim tadqiqot materiallari yoshlar siyosati masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat va hududiy organlar, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligining Yoshlar siyosati qo'mitasi uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** obyektivlik, tarixiylik, strukturaviy-funksional tahlil kabi bir qator qat'iy ilmiy tamoyillar va usullardan foydalanganlik bilan tasdiqlangan. Ushbu yondashuvlar faktologik manbalarni, shu jumladan qo'lyozmalar va dala yozuvlarini sinchkovlik bilan o'rganishga asoslangan.

Bundan tashqari, olingan natijalarning ishonchliligi ularning respublika va xalqaro ilmiy, ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to'plamlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda, xorijiy nashrlarda chop etilganligi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati** qoraqalpoq yoshlari bo‘sh vaqtlarining etnomadaniy xususiyatlari muammosi bo‘yicha metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalardan foydalanish bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qoraqalpoq yoshlari bo‘sh vaqtlarining etnomadaniy xususiyatlarini o‘rganish natijalari jamiyatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotini, O‘zbekiston xalqlari tarixi, shuningdek ularning madaniy merosining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi. Olingan ma‘lumotlar dunyo xalqlari madaniyati haqidagi etnografik bilimlarni boyitishga ham xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog‘istonlik yoshlarning bo‘sh vaqtining etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida olingan natijalar va takliflar asosida:

*báygi, at shabís, kókpar* kabi qoraqalpoq an‘anaviy o‘yinlari va *aq síyek, ayqulash* kabi ko‘ngilochar tadbirlar yoshlar hayotida muhim o‘rin tutganligi, ular vaqtni quvnoq o‘tkazish bo‘libgina qolmasdan, balki jismoniy ko‘nikmalarining rivojlanishi, raqobat va jamoaviylik ruhini shakllantirishga yordam berganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar. Ushbu materiallar O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog‘iston boshqarmasining ma‘ruza dasturlariga integratsiyalangan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog‘iston boshqarmasining 2024 yil 11 sentyabrdagi 0208/967-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ma‘lumotlardan foydalanish o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib, ularning o‘zligi va ijtimoiy birdamligini mustahkamlashga xizmat qilgan;

*otirspaq, ziyapat, meylis* kabi qoraqalpoq yoshlari bo‘sh vaqtlarining an‘anaviy turlari hamda ularning muhim tarkibiy qismi bo‘lmish *aytis* (aytishuv) hamda *tabıspaq* (boshqotirma) va *jumbaq* (topishmoq) kabi intellektual o‘yinlari va jumboqlarning tadqiq qilish natijalari ularning nafaqat dam olish shakllari, balki madaniy va intellektual rivojlanish vositasi sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu materiallar Berdaq nomidagi Adabiyot tarixi muzeyida ekskursiya ma‘ruzalarini boyitish uchun foydalanilgan (Berdaq nomidagi Adabiyot tarixi muzeyining 2024 yil 6 sentyabrdagi 01-02/01-151-sonli ma‘lumotnomasi). Dissertasiya tadqiqoti ma‘lumotlaridan foydalanish ma‘ruzalar mazmunini sezilarli darajada kengaytirish, tashrif buyuruvchilarga xalqning an'analari va madaniy merosi bilan chuqurroq tanishishga imkon bergan, bu esa ularda qadriyatlar haqida to‘liqroq tasavvur shakllantirishga yordam beradi;

shahar muhitida yashaydigan qoraqalpoq yoshlari bo‘sh vaqtini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari va uning tarkibining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tizimlashtirilib, uning quyidagi to‘rtta asosiy komponenti ajratildi: jismoniy, intellektual, ijodiy va ijtimoiy bo‘sh vaqt. Bundan tashqari, tadqiqot ushbu guruh bo‘sh vaqtining tashkil etilishiga shahar muhitining ta‘sirini qamrab oladi. Bu ma‘lumotlar Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining “Qoraqalpog‘istonda globallashtirish, transformatsiya va ekologik inqiroz sharoitida an‘anaviy madaniyat” mavzusidagi fundamental loyihasida

foydalanilgan (O‘zR FA QB Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024 yil 23 - sentyabrdagi 01-03/04-503-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu materiallardan foydalanish jamiyatda sodir bo‘layotgan transformatsiya jarayonlarining ijobiy va salbiy tomonlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi;

yoshlar bo‘sh vaqtini o‘tkazishning zamonaviy shakllariga oid yangi ma‘lumotlar, jumladan Telegram, Facebook, Instagram va WhatsApp kabi ommabop ijtimoiy tarmoqlar ularning madaniyatlararo muloqot va turli mamlakatlar va mintaqalar odamlari bilan aloqa o‘rnatishdagi rolini ta’kidlaydi. Ushbu platformalar yoshlarga axborot va madaniy qadriyatlar bilan almashish, shuningdek, o‘z fikr va g‘oyalarini ifoda etish, ijodi bilan o‘rtoqlashish va hamfikrlarni topish imkonini beradi. Ushbu natijalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining «Xaliq penen sáwbet» ko‘rsatuvidagi chiqishlar doirasida taqdim etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-sentabrdagi 05-22/416-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu materiallar tomoshabinlarni zamonaviy yoshlarning qiziqishlari, ishtiyoqlari va vaqtni quvnoq o‘tkazishning zamonaviy shakllari haqida yangi bilimlar bilan boyitdi.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta, shu jumladan 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta maqola, xorijiy nashrlarda 3 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, ishning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning obyekt va predmeti, shuningdek, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlangan. Shu bilan birga olingan natijalarning ishonchliligi, ulaning aprobatsiyasi, amaliyotga joriy qilinganligi va mavzu bo‘yicha nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Zamonaviy yoshlar bo‘sh vaqtining nazariy asoslari**” deb nomlangan. Tadqiqotda qoraqalpoq yoshlarining an‘anaviy bo‘sh vaqtining amaliyotlarini tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratildi. Buning sababi shundaki, mintaqaning etnomadaniy xususiyatlarini tushunish ular asoslangan tarixiy va madaniy asoslarni o‘rganmasdan turib mumkin emas. Keyingi tadqiqotlar davomida Qoraqalpog‘istonning ko‘p millatli yoshlarining

zamonaviy o'yin-kulgilari va dam olish usullariga e'tibor qaratildi. Fokusning bu o'zgarishi globallashtirish sharoitida, dam olishning an'anaviy shakllari raqamli va ommaviy madaniyat kabi yangi, zamonaviy tendensiyalarga duch kelganda zarur bo'ldi. Shunday qilib, Qoraqalpog'iston yoshlarini o'rganish obyekti sifatida tanlash madaniy an'analar va zamonaviy voqeliklar bir-biri bilan qanday o'zaro ta'sir qilishini chuqurroq tushunish, mintaqaning zamonaviy yoshlarining dinamik va ko'p qirrali madaniy muhitini shakllantirish zarurati bilan asoslanadi.

Uning birinchi paragrafi "*Bo'sh vaqt*", "*yoshlar*" atamalarining tavsifi, ta'riflari va yosh chegaralari" masalasiga bag'ishlangan.

Zamonaviy jamiyatda "bo'sh vaqt" va "yoshlar" tushunchalari madaniy va ijtimoiy hayotni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqotchilar tomonidan "bo'sh vaqt" tushunchasi uchta asosiy guruhga bo'lingan. Birinchi guruh tarafdorlari bo'sh vaqtni dam olishning faol tarkibiy qismi sifatida tavsiflaydi. Ikkinchi guruh dam olishni "bo'sh vaqt" atamasiga ma'nodosh so'z deb hisoblaydi. Uchinchi nuqtai nazar bo'sh vaqtni erkin tanlashga asoslangan rivojlanish faoliyati sifatida talqin qiladi.

Yoshlar ijtimoiy ko'rsatkichlarining yagona xalqaro ta'rifi mavjud bo'lmasda, ular turli qit'alarda yoshlarning ahvolini aniqroq tahlil qilish uchun zarurdir. Yoshlarni aniqlash uchun yosh chegaralari mamlakatga qarab farq qiladi<sup>23</sup>.

Qoraqalpoqlarda yoshlarning yosh guruhlarini aniqlashga oid o'z atamaları mavjud. Masalan, "tug'ilgandan 4-5 yoshgacha bo'lgan bolalar *náreste, sağıyra* deb nomlanadi. Ikkala atama ham o'g'il bolalar, ham qizlarga nisbatan qo'llaniladi. Oilada o'g'il bola tug'ilganda, ayniqsa, u to'ng'ich farzand bo'lsa, ota-onasi uni o'g'il deyishdan qochgan holda, ba'zan o'g'il so'zining o'rniga – *jaman-neme* yoki boshqa so'zlarni ishlatganlar, qizlarni *qız, qızalaq* deb atashgan. 5 yoshdan 10 yoshgacha o'g'il bolani *ul, ul bala, er bala*; qizlarni esa – *qız, nashar, nashar bala, qız bala* deb atashgan. 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalarni *jigit, jas ospirim jigit*, 11 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan qizlarni *balagatqa jetken qız*, 18 yoshga yetmagan qizni *jas óspirim qız* deb atashgan. 16-18 yoshdan u'ylangunga qadar yigitlarning yoshlik davri – *jigitlik dáwir* hisoblangan, yosh yigitni *jas jigit*, bo'yi yetgan qizlarni – *boyi jetken qız, er jetken qız, kamalga kelgen qız*, balog'atga yetganlarni – *tolisqan qız* deb atalgan. Turmush qurgandan keyin 35-40 yoshgacha bo'lgan erkakni *jigit, úylengen jigit* deb atashgan. Turmush qurgandan so'ng ayolni birinchi farzandi tug'ilgunga qadar *jas kelinshek*, to'rt va undan ortiq farzandning onasini esa *hayal, qatın* deb atashgan<sup>24</sup>.

O'zbekistonning ajralmas qismi bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasida insonning hayot bosqichlari haqidagi an'anaviy tasavvurlar saqlanib qolgan bo'lib, bu o'ziga xos atamalar va yosh toifalarida o'z ifodasini topmoqda. Yoshlarning yoshga oid ta'riflarining transformatsiyasini kompleks tahlil qilish ham umumiy tendensiyalarni, ham mintaqaviy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa zamonaviy O'zbekiston jamiyatining xilma-xilligini hisobga olgan holda yanada samaraliroq davlat yoshlar siyosatini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

<sup>23</sup> Радченко А.Ф. Молодежь и ее возрастные границы // Социология власти. – 2012. - № 3. – В. 19-22.

<sup>24</sup> Бекмуратова А.Т. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. – Нукус, 1969. – 43 б.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “*Markaziy Osiyo tarixshunosligining tahlili*”ga bag‘ishlangan.

Bo‘sh vaqt yoki vaqtni erkin o‘tkazish ijtimoiy hodisa sifatida chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ushbu bosqichda u aksiologiyasi qadimgi dunyodayoq Platon, Demokrit, Aristotellar falsafasida paydo bo‘lgan qarashlar tizimini ifodalaydi<sup>25</sup>.

Bevosita bo‘sh vaqt shakllariga oid ma‘lumotlarini o‘zida aks ettirgan ilmiy ishlar ichida, birinchi navbatda, G. Snesev, A.M. Nosirova, K. Shaniyazov, B. Umarov, Sh. Jabborov, B. Ergashev, X.D. Xaqnazarov, M.S. Usmanov kabi o‘zbekistonlik tadqiqotchilarning ishlarini ajratib ko‘rsatish zarur<sup>26</sup>.

Ikkinchi guruh adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qozog‘istonlik tadqiqotchilarining ishlarida yoshlarning bo‘sh vaqtlari muammosiga katta e‘tibor berilgan. M.Tanekeyev qizlar va yigitlarning bo‘sh vaqtini milliy o‘yinlar turlari bilan bog‘liq ravishda ko‘rib chiqadi<sup>27</sup>. E.S. Tastanqulov va A.R. Doniyarova yosh avlod zamonaviy madaniyati shakllanish yo‘llarini o‘yinlarning ma‘naviyatga, dunyoning haqiqiylikini va virtual o‘yinlar makonini anglashga ta‘sirini hisobga olgan holda ko‘rsatadilar<sup>28</sup>. Qozog‘iston zamonaviy yoshlarining bo‘sh vaqtini o‘tkazish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari A.A Mirzabekova, A.K. Ozanov, O.B. Naumova<sup>29</sup> va boshqa mualliflarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Qirg‘izlarda bo‘sh vaqt muammolarini o‘rganishda umumiy etnografik xarakterdagi ishlarda bu xalqning bo‘sh vaqt o‘tkazish an‘analari chuqur o‘tmishda ildiz otganligi qayd etilgan. Tadqiqotchi R.Sh. Zaynulinning fikriga ko‘ra, qirg‘iz xalqi “Ulak-tartish”, “Oodarish” va “Kizkuumay”<sup>30</sup> kabi ko‘plab an‘anaviy ot o‘yinlarini saqlab qolgan. Ushbu guruh adabiyotlari o‘rtasida qirg‘iz yoshlarining bo‘sh vaqtlarini quvnoq o‘tkazish bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan bir qator ishlarni ko‘rsatish mumkin<sup>31</sup>.

<sup>25</sup> Феномен досуга в античном мире. – Санкт-Петербург, 2013.

<sup>26</sup> Снесарев Г.П. Пачиз (Об одном этнографическом памятнике древних индо-хорезмийских связей) // СЭ. – М., 1962. - № 5. –82-93 бб.; O‘sha muallif: Традиция мужских союзов в ее позднейшем варианте у народов Средней Азии // МХЭ. Вып.7. – М., 1963. – 156 б.; Эргашев Б. Молодежь Центральной Азии. Узбекистан (на основе социологического опроса). - Алматы, 2016; Насирова А.М. Педагогические возможности культуры в условиях праздничного досуга: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 1995; Шаниязов К.Ш. Древние традиции общественной жизни // Узбеки. Народы и культуры. – М., 2011. – 426 б.; Умаров Б., Жаббаров Ш. Глобаллашув ва ёшлар тарбияси. – Тошкент, 2011. – С. 5-12; Хакназаров Х.Д. Узбекистон ёшларининг кундалик турмиш тарзи: Дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2018; Усманов М. С. Досуг молодежи-функции и пространство. – Ташкент, 2021.

<sup>27</sup> Танекеев М. Мир народного спорта. – Алматы, 1998. – 285 б.

<sup>28</sup> Тастанкулов Е.С., Даниярова А.Р. Игры как досуг современной казахстанской молодежи // Вестник КазНУ. Серия философия, политология, культурология. – Алматы, 2015. - № 2. – В. 141-145.

<sup>29</sup> Мырзабекова А. А. Особенности досуговых практик современной студенческой молодежи // Вестник КазНУ. – Алматы, 2016. – В. 169-173; Ozanov A.K. Досуг и исследование досуговых практик студентов / Электронный научный журнал «edu.e-history.kz». – Алматы, 2017. - № 4. – В. 140-145; Наумова О.Б. Игры и развлечения // Казахи. Народы и культуры. – М., 2021. – 562 б.

<sup>30</sup> Зайнулин Р. Ш. Культурное многообразие кыргызского народа-неотъемлемая часть исторического наследия Кыргызстана // Наука и новые технологии. – Бишкек, 2009. - № 4. – В. 152-155.

<sup>31</sup> Попова Л.Ф., Стасевич И.В. По следам предшественников, открывая новые пути // Материалы полевых исследований МАЭ РАН. - Вып. 14. – М., 2014. – В. 149-169; Сальпиева Э. Б. Роль менталитета Кыргызцев в воспитании молодежи // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – Новосибирск, 2018. - №3. – В. 189-192; Биялиев А.Ш. Культурно-досуговая деятельность как фактор саморазвития студенческой молодежи Кыргызстана // Инновационная наука. – Бишкек, 2020. - № 4. – В. 165-168.

Bo'sh vaqt bilan bog'liq faoliyatni o'rganish Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi Tojikistonda XX-XXI asrlarda ayniqsa faol boshlangan. Tadqiqotchi N. Latipov bo'sh vaqtni shaxslararo muloqotni shakllantirish sohasi sifatida tahlil qilgan<sup>32</sup>. Tojikistonlik yoshlarning bo'sh vaqtlari haqidagi ba'zi ma'lumotlar XX asrning birinchi choragigacha bo'lgan davrda tojikistonlik erkaklar va ayollar uyushmalari tarixiga bag'ishlangan maqolada keltirilgan<sup>33</sup>.

Yoshlar bo'sh vaqtini o'tkazish masalasining Turkmaniston tarixshunosligi O'zbekiston va Qozog'istondagi singari ko'p jihatli emas, biroq bu yerda yoshlarning an'anaviy tarzda bo'sh vaqtini o'tkazishga bag'ishlangan qator ishlarni nomlash o'rinlidir. Yoshlarning bo'sh vaqtni quvnoq o'tkazishi, xususan, milliy o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlar haqidagi ma'lumotlar A. Jikiev<sup>34</sup>, X.D. Gudjikov<sup>35</sup>, N.I. Qurbonov<sup>36</sup> va boshqa mualliflar ishlarida uchraydi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tarixshunoslik tahlili Markaziy Osiyo olimlarining madaniy o'ziga xoslikni saqlashda va yosh avlodning zamonaviy voqelikka moslashishida yoshlar bo'sh vaqtining o'rni va ahamiyatini anglashga qiziqishlari ortib borayotganidan dalolat beradi. Ushbu ilmiy yo'nalishni yanada rivojlantirish mintaqada yoshlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam berishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ushbu bobning "*Qoraqalpog'iston tarixshunosligi*" nomli uchinchi paragrafi mahalliy tadqiqotchilar asarlarida bo'sh vaqtning o'rganilishi masalasiga bag'ishlangan. Yoshlar o'tirishlariga birinchi bo'lib e'tibor qaratgan tadqiqotchilardan biri qoraqalpog'istonlik etnograf U.Kusekeev bo'lgan. Uning qo'lyozmasida XX asrning birinchi choragida qayd etilgan yoshlar o'yinlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. "*Aga biy*" o'yinining batafsil tavsifi berilgan<sup>37</sup>. K.L. Zadixinaning "Markaziy Osiyo xalqlari orasida yoshga oid bo'linishlar qoldiqlari" nomli ishi O'rta Osiyo xalqlari madaniyatlaridagi yoshga oid stratifikasiya bilan bog'liq an'anaviy tasavvurlar va amaliyotlarni o'rganishga bag'ishlangan<sup>38</sup>.

G.D. Kagan qoraqalpoq xalqi an'anaviy bolalar o'yinlarining batafsil tasnifini taklif qilib, unda quyidagi toifalarni ajratib ko'rsatgan: kam harakatli o'yinlar, o'rta va yuqori darajada harakatli o'yinlar, shuningdek, stol o'yinlari. Muallif bu turlarning har birini alohida tahlil qilar ekan, ularda qoraqalpoqlar madaniyatining

---

<sup>32</sup>Латыпов Д.Н. Досуг как сфера формирования культуры межнациональных отношений // Проблемы национального и интернационального в развитии культуры Востока. – Душанбе, 1990. – В. 172-177; O'sha muallif: Социально-культурная организация досуга национальных меньшинств (на примере Кургантюбинской обл) // Докл. науч.-прак. конф. ученых и молодых специалистов республики. – Курган-Тюбе, 1991. – В.155-160.

<sup>33</sup>Сафаралиев Б. С. Из истории духовной культуры таджикского народа. – Челябинск, 2011. – 251 б.

<sup>34</sup>Джикиев А. Рухнама и традиционные туркменские праздники. – Ашхабад, 2005. – 174 б.

<sup>35</sup>Гуджиков Х. Д. Воспитание студенческой молодежи на основе духовно-нравственных традиций туркменского народа // Молодой ученый. – Казань, 2019. - № 44. – В. 332-335.

<sup>36</sup>Курбанов Н.И. Роль туркменской молодежи в Российско-туркменских гуманитарных отношениях // Казанский вестник молодых ученых. – Казань, 2022. - № 2. – В. 80-81.

<sup>37</sup>Кусекеев У. Этнография ККАССР. – Турткуль, 1934. – 93 б. // O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Fundamental kutubxonasining qo'lyozmalar fondi. Инв. № 932.

<sup>38</sup>Задыхина К.Л. Пережитки возрастных классов у народов Средней Азии // Родовое общество. Этнографические материалы и исследования. – М., 1951. – В. 157-179.

milliy va maishiy o'ziga xos xususiyatlarining saqlanib qolganligiga ishora qiladi<sup>39</sup>.

A.T. Bekmuratovning ishida qoraqalpolarda yoshlarning yoshga oid stratifikatsiyasi va bo'sh vaqtni tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ma'lumotlar taqdim etilgan<sup>40</sup>.

X.Esbergenov va T.Atamuratovlar o'g'il bolalar *ziyapat* kechasida faqat inisiatsiya tadbirini o'tganlaridan so'ng, ya'ni sunnat qilingandan so'nggina qatnashishlari mumkinligini ta'kidlaydilar: "Sunnat marosimi amalga oshirilgandan so'ng, bola o'qish va yozishni, hunarmandchilikni o'rganishi mumkin bo'lgan shaxslar toifasiga o'tgan, hatto uni nikohlash - *atastiruv* mumkin edi, ya'ni u kuyovlar toifasiga kiritilgan. Shu paytdan boshlab bola yigitlarning *ziyapat* kechalarida qatnashishi mumkin edi"<sup>41</sup>.

A.Pirnazarov tomonidan yoshlar o'yinlari rejissura elementlari nuqtai nazaridan o'rganilgan<sup>42</sup>.

Qoraqalpoq harakatli o'yinlariga bag'ishlangan kichik hajmli maqolada an'anaviy o'yinlar tavsifi berilgan<sup>43</sup>. Yoshlarning o'tirishlari - *otirispag* to'y marosimlarining bir qismi hisoblangan. Masalan, *kokpar* o'yinidan so'ng uloqni yutgan g'olib uni bir hurmatli kishining uyiga olib keladi va u yerda yoshlar o'tirishi o'tkazilgan<sup>44</sup>.

N.P. Lobacheva jamiyatning jinsi va yoshi bo'yicha stratifikatsiyasi va u bilan bog'liq yoshga oid uyushmalar, hatto XX asr boshlariga xos bo'lgan deformatsiyalangan va eskirgan shakllarda ham inson xulq-atvorini ijtimoiy, xo'jalik va oilaviy hayotda tartibga solgan degan xulosaga keladi<sup>45</sup>.

Qoraqalpolarda Navro'z bayramini nishonlashga bag'ishlangan tadqiqotda *otirispag* (*otirispag*), *geshtek* deb ma'lum bo'lgan o'tirishlarni o'tkazishga alohida e'tibor berilgan. Mualliflar *otirispag* va *geshtek*larning yoshlar hayotidagi ahamiyatini ta'kidlab, ularning bo'sh vaqtni tashkil etishdagi rolini qayd etadilar<sup>46</sup>.

T.X.Esbergenovning tadqiqotida bolalar va o'smirlar o'yinlarining batafsil tavsifi hamda tasnifi keltirilgan<sup>47</sup>. U an'anaviy qoraqalpoq o'yinlari va ko'ngilochar tadbirlarni ishtirokchilarning xarakteri, maqsadi, yoshi va jinsiga oid o'ziga xos xususiyatlari kabi turli mezonlarga asoslanib, bir necha toifalarga ajratadi.

<sup>39</sup> Каган Г.Д. Каракалпакские народные детские игры. – Ташкент, 1969.

<sup>40</sup> Бекмуратова А.Т. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. – Нукус, 1969. – В. 31-32.

<sup>41</sup> Esbergenov X., Atamuratov T. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. – Нукус, 1975. – 163 б.

<sup>42</sup> Пирназаров А. Режиссура каракалпакского гостеатра им. К.С. Станиславского (истоки и формирование). Нукус, 1983. – 24 б.

<sup>43</sup> Esbergenov X., Elmuratov B. Каракалпакия // Игры народов СССР. – Москва, 1985. – В. 137-139.

<sup>44</sup> Esbergenov X., Xo'shniyozov J. Этнографические мотивы в каракалпакском фольклоре. – Ташкент, 1988. – 155 б.

<sup>45</sup> Лобачева Г.П. Сверстники и семья (К вопросу о древней половозрастной традиции общества у народов Средней Азии и Казахстана) // Советская этнография. – М., 1989. – № 5. – 83-95 б.

<sup>46</sup> Esbergenov X., Esbergenova T., Seitmuratova Z. Наўрыз – халкымыздың миллий байрамы. – Нукус, 1998.

<sup>47</sup> Esbergenova T.X. Этнокультурные аспекты детской игры каракалпаков // Вестник ККОАНРУз. – Нукус, 1998. – № 4. – В. 99-102; Традиционное трудовое воспитание детей у каракалпаков: Дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1999.

D.N. Sagindikov tadqiqotida biz o'rganayotgan muammoga bevosita bog'liq bo'lgan keng qamrovli materiallar keltirilgan. Unda 1983-1986-yillarda Qoraqalpog'iston (Shumanay, Kegeyli va Qorao'zyak tumanlari) va Farg'ona viloyatining qishloq joylarida yashovchi yoshlarning bo'sh vaqtidagi faolligini o'rganishga bag'ishlangan sotsiologik tadqiqot natijalari keltirilgan. Jami so'rovda 1300 kishi qamrab olingan<sup>48</sup>.

Shunday qilib, ushbu masalaning tarixshunosligi Qoraqalpog'istonda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida yoshlar bo'sh vaqtni o'tkazish shakllari va funktsiyalarining evolyutsiyasini namoyish qiladi, bu esa kompleks o'rganishni va samarali yechimlarni izlashni talab etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qoraqalpoq yoshlari bo'sh vaqtining an'anaviy amaliyotlari”** deb nomlanadi. Uning *“Yoshlarning an'anaviy o'yinlari va ko'ngilochar tadbirlari”* deb nomlangan birinchi paragrafi an'anaviy qoraqalpoq o'yinlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

O'yinlar va ko'ngilochar tadbirlar xalq madaniyatida asosiy rol o'ynagan, bolalikdan to voyaga yetgunga qadar muhim o'rin egallab kelgan. Har bir yosh toifasida o'ziga xos o'yinlar bo'lib, ular turli ko'nikmalar va fazilatlarni rivojlantirishiga yordam beradigan. Yoshlar o'rtasida chaqqonlik, tezkorlik, merganlik kabi jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar muhim ahamiyat kasb etgan.

An'anaviy ot poygasi - *at shabis*, uloq - *ilaq* va *kókpar* o'yinlari juda mashhur bo'lib, yoshlarga nafaqat ot minish va boshqa amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish, balki raqobat ruhini his etish imkonini berdi. Bu musobaqalar nafaqat jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirgan, balki ishtirokchilar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni ham mustahkamlagan.

Voyaga yetgan yoshlar uchun xalq o'yinlariga asoslangan ko'ngilochar tadbirlarga *Ayqulash* – Oyni quchoqlash, *Atkónshek* – Arg'imchoq, *Arqan tartısıw* – arqon tortish, *báygi* – ot poygasi, *gúres* – kurash, *juwrısıw* – yugurish musobaqalari, *ilaq* – uloq tortish, *altın qabaq* – mo'ljalga o'q otish, shuningdek *Aga biy* – katta biy, *Qırıq jigittiń oyını* – qirq yigit o'yini kabi o'tirishlardagi o'yinlarning ayrim turlari kirgan. Bu o'yinlarda ishtirokchilarning individuallik, epchilik, chaqqonlik, mahorat, kuch, topqirlik, chidamlilik kabi fazilatlari namoyon bo'ladi.

Qoraqalpoqlarda keng tarqalgan va boshqa turkiy xalqlarda ham uning o'xshash turlari uchraydigan harakatli o'yinlardan biri *“Oq suyak” Aq súyek* o'yinidir<sup>49</sup>.

Qoraqalpoq yoshlarining eng sevimli o'yini (olchiklar) *asıq oyını* – oshiq o'yini edi. M.Nurmuhamedov maxsus maqolasida o'yin haqida batafsil ma'lumot bergan. Tadqiqotchi ta'kidlashicha, u mergan va epchil o'yinchilarni talab qilgan, muallif uning quyidagi bir nechta turlarini sanab o'tadi: *pesh* - eng oddiy tur,

<sup>48</sup>Сагиндиқов Д.Н. Проблемы совершенствования форм досуга и духовного общения сельских тружеников. – Нукус, 1990.

<sup>49</sup> Шаниязов К. Узбеки-карлуки (историко-этнографический очерк). – Ташкент, 1964. – 169 б.; Казахи. Историко-этнографическое исследование. – Алматы, 1995. – 205 б.; Джикеев А. Традиционные туркменские праздники, развлечения и игры. (На материале Южного и Восточного Туркменистана). – Ашхабад, 1983. – 83 б.

*dordian* - to'rtburchak chizilgan, *altı taban* - tajribali o'yinchilar uchun, *tört asıq* - kattalar uchun o'yin<sup>50</sup>.

*Gúres* milliy kurashi an'anaviy tarzda xalq madaniy hayotida alohida o'rin tutadi va aholining barcha qatlamlari orasida keng tarqalgan.

Qoraqalpoq yoshlarning an'anaviy ko'ngilochar tadbirlari to'y marosimlariga uyg'un tarzda birlashib ketar, nafaqat bayramona kayfiyatni, balki yoshlarning muloqot qilish imkoniyatini yaratgan. To'y-hashamlarda yoshlar turli o'yinlarda faol ishtirok etgan, bu nafaqat mehmonlarni xushnud etgan, balki jamoalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan<sup>51</sup>.

Qoraqalpoqlarning an'anaviy ko'ngilochar tadbirlariga o'tgan asrning o'rtalarigacha mashhur bo'lgan *qur* deb nomlangan ommaviy tadbirlar ham kirgan. *Qur* biron tantana doirasida o'tkazilgan.

Qoraqalpoqlarning an'anaviy o'yinlari va ko'ngilochar tadbirlari yoshlarning bo'sh vaqtlarida asosiy o'rinni egallab, ko'plab vazifalarni bajaradi. Ular nafaqat ko'ngilochar tadbirlarni ta'minlabgina qolmay, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi, madaniy bilimlarni uzatish va jamoaviy ruhni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ko'ngilochar tadbirlar yoshlarning oila qurish uchun uchrashishi va bir-birini tanlashi uchun sharoit yaratadi, bu ularning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydi.

Ushbu bobning "*An'anaviy yoshlar o'tirishlarining o'ziga xosligi*" deb nomlangan ikkinchi paragrafi turli yosh guruhlari vakillarining muloqot qilishlari, birga ovqatlanishlari va ko'ngil ochishlari mumkin bo'lgan yoshlar o'tirishlarining turli shakllarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Bu uchrashuvlar yoshlarning ijtimoiylashuvi, madaniy qadriyatlar va an'analarni oldingi avloddan yosh avlodga uzatishda muhim rol o'ynaydi.

*Otirispaq* o'tirishlari *ziyapat*, *geshtek*, *meylis* kabi manodosh so'zlar bilan ham nomlangan.

A. Bekmuratova o'tirishlarning ikki asosiy turini ajratib ko'rsatgan: 1. Bir urug' vakillari o'rtasidagi o'tirishlar - *urıw otirispaq*. O'tirishlarning bu formati qishloq aholisi orasida keng tarqalgan bo'lib, bir urug' birlashmasi a'zolarining yig'ilishini nazarda tutgan. Ushbu o'tirishlar bir urug' vakillarining birlashishiga, qarindoshlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga va jamoada madaniy qadriyatlarning uzatilishiga yordam bergan; 2. Sinfdoshlar bilan o'tirishlar. *Otirispaq* ning ushbu formati odatda maktab munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan bir avlod yoshlarini birlashtirgan. Ushbu uchrashuvlar ko'proq norasmiy bo'lib, muloqot, o'yin-kulgi va dam olishga qaratilgan. Ular yoshlarga do'stlik aloqalarini saqlashga va ijtimoiy o'zaro munosabatlar modellarini o'zlashtirishga imkon bergan<sup>52</sup>.

Turli bayramlar munosabati bilan tashkil qilinadigan o'tirishlar bo'lgan. Masalan, etnograflar tomonidan Hayit bayramini nishonlash paytida o'tkazilgan *otirispaq* tasvirlab berilgan. Bunday o'tirishlar uchun oldindan uy tanlab, ovqat tayyorlangan. O'tirishga kelgan yigit-qizlar *dasturxanning* qarama-qarshi

<sup>50</sup> Нурмухамедов М.К. Прыжок. Академик Марат Нурмухамедов. – Ташкент, 2020. – В. 110-117.

<sup>51</sup> Кусекеев У. Этнография ККАССР. – Турткуль, 1934. – В. 63-68.

<sup>52</sup> Бекмуратова А. Т. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. – Нукус, 1969. – В. 49-50.

tomoniga o'tirilishgan, bu ishtirokchilar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirdi. An'anaviy kuy-qo'shiqlar ijrosi uchun sozandalar taklif etilgan, bu esa tadbirlarning madaniy mazmunini yanada boyitgan. Yoshlar *Aqsaq jorg'a, Yar shaqirar, Quwdin joli* kabi turli xalq qo'shiqlarini ijro etganlar. Shuningdek Choy ichish, *juwap aytis* – hazil tariqasida an'anaviy musobaqalar o'tirishning majburiy elementi bo'lgan<sup>53</sup>.

Qoraqalpoq madaniyatida *otirispag* tarixan muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, ilgari *otirispag* asosan qish mavsumida, qishloq xo'jalik ishlari tugallanib, qishloq aholisining bo'sh vaqti ko'paygan davrda ko'proq o'tkazilgan<sup>54</sup>.

Qizlar tashabbusi bilan o'tkaziladigan ayollar o'tirishlari ham bo'lgan, ular ip yigirish, tikish kabi birgalikda qo'l hunari, chevarlik bilan shug'ullanish asosida o'tkazilgan. Marosim *sabaq iliw* (ip bilan ilintirish) deb ataladi va madaniy amaliyotning muhim elementi bo'lib xizmat qiladi. *Pilte iliw* (yigirilgan ip bilan ilintirish) marosimi ham xuddi shunday tarzda amalga oshiriladi<sup>55</sup>.

Axborot beruvchilar ma'lumotlariga ko'ra, 1950-yillarda, urushdan keyingi og'ir davrda *otirispag* o'tkazish nomunosib, niyati yomon harakat sifatida baholangan, natijada ular juda kam uchraydigan hodisaga aylangan.

1960-yillarida vaziyat o'zgara boshladi – respondentlarning ta'kidlashicha, shu vaqtdan boshlab yoshlar o'tirishlarni faqat o'zidan 3-4 yosh katta bo'lgan qishloqdoshlari turmush qurgandan keyingina uyushtira boshlagan. Bunday uchrashuvlarda yosh yigitlar kelinning qarindosh-urug'lari va dugonalari bilan maxsus marosim pardasi - *shimldiq* ortida yoziladigan dasturxon atrofida muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan. Bu qizlar bilan norasmiy muloqot qilish uchun deyarli yagona, barcha foydalanishi mumkin bo'gan yo'l bo'lgan, chunki qolgan vaqtlarda to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish juda qiyin edi<sup>56</sup>.

1966 yilda va undan keyin yoshlarning, xususan, konsertlar va filmlar namoyishi paytida erkinroq muloqot qilish imkoniyati paydo bo'lgan<sup>57</sup>. Bu jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida yoshlar o'tirishlari an'anaviy shakllarining asta-sekin o'zgarib borishidan dalolat beradi.

An'anaviy o'tirishlar, garchi o'zgartirilgan shaklda bo'lsa ham, hozirgi vaqtda saqlanib kelmoqda. Qoraqalpoqlar o'rtasidagi zamonaviy yoshlar o'tirishlarini quyidagi asosiy toifalarga bo'lish mumkin: 1. O'qish joyidagi o'tirishlar; 2. Urug'-aymoq o'rtasidagi o'tirishlar. O'tirishlarning ushbu turi bir urug' - urio' vakillarini o'tirishini ko'zda tutadi; 3. Hududiy o'tirishlar. Bu erda ishtirokchilarning bir hududda bir-biriga yaqin yashashi birlashtiruvchi omil bo'lgan, ya'ni o'tirishga eng yaqin qo'shnilar yig'ilgan; 4. Do'stlar o'tirishlari; 5. Qarindoshlarning birga o'tirishi. Bu tur opa-singillarning erlari, yani nikoh orqali qarindosh bo'lgan bojalar (*baja*) o'tirishini ko'zda tutadi.

<sup>53</sup> Есбергенов Х. и др. Наўрыз халқымыздың миллий байрамы. – Нөкис, 1998. – В. 14-17.

<sup>54</sup> Есбергенов Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. – Нукус, 1975. – 48 б.

<sup>55</sup> Кусекеев У. Этнография ККАССР. – Турткуль, 1934. – 87 б.

<sup>56</sup> MDM 2024, № 46. Kegeyli, nurlı Bostan MXX. Ma'lumot beruvchi: Kamalova Mariya 1947 yilda tug'ilgan.

<sup>57</sup> MDM 2024, № 47. Kegeyli, nurlı Bostan MFY. Ma'lumot beruvchi: Saparniyazova Gulxatisha 1950 yilda tug'ilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Zamonaviy yoshlarning bo‘sh vaqti**” deb nomlangan. Uning “*Nukus shahridagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar va yoshlar muhiti*” nomli birinchi paragrafida Nukus shahri yoshlarning bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishi muammosi yoritilgan.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Nukus shahrida jami talabalar soni 57503 nafarni tashkil qilgan 11 ta oliy ta‘lim muassasi; jami o‘quvchilar soni 1876 ta bo‘lgan 4 ta akademik litsey; 1743 nafar talabani qamrab olgan 4 ta kollej; talabalar soni 3689 ta bo‘lgan 5 ta texnikum faoliyat ko‘rsatgan<sup>58</sup>. Shunday qilib, Nukusda jami ta‘lim oluvchi yoshlar soni 64811 nafarni tashkil qilgan. Nukus oliy ta‘lim muassasalari hududning malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan yo‘nalish va mutaxassisliklarning keng doirasini qamrab olgan.

Madaniy makon yirik shahar markazlarida bo‘sh vaqtdan foydalanish potensialini belgilovchi asosiy resurs hisoblanadi. Shaharning madaniy infratuzilmasining shakllanish jarayonining boshlanishi o‘tgan asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Nukusliklarning madaniy hayotini kinosiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kinoteatrlarga borish shahar aholisi uchun keng tarqalgan dam olish turiga aylangan.

1978 yilda Nukusda S.Xo‘janioyozov nomidagi Yosh tomoshabinlar teatri (YTT) tashkil qilinishi Qoraqalpog‘iston teatri hayotida muhim voqea bo‘ldi. Shaharliklar Y.Mahmudovning “Yalang‘och podshoh”, I.Yuzeyevning “Baloga tug‘diradigan hazil”, Q.Rahmonovning “Kechki bahor”, T.Seytjonovning “Nukus afsonasi” va M. Yahyoevning “Pushaymon” kabi spektakllariga katta mamnuniyat bilan tashrif buyurishardi<sup>59</sup>.

Shahar aholisi madaniy hordiq chiqarishining muhim tarkibiy qismini madaniyat uylari, korxonalar va ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan badiiy havaskorlik to‘garaklari tashkil qilgan. Shaharliklar bo‘sh vaqtini tashkil etishning bunday shakli 1960-yillarda ayniqsa mashhur edi.

Hozirgi davrda Nukus shahrida ikkita xususiy kinoteatr mavjud, bular: 22-mikrorayonda joylashgan “Kinonline” va “Jipek joli” ko‘chasida joylashgan “Sawlecinema”. Ushbu muassasalar shahar aholisiga kinematografiya madaniyatini rivojlantirishga yordam beradigan turli filmlar va madaniy tadbirlarni taklif etadi. Shuningdek shahar o‘zining katta rekreatsion salohiyati bilan mashhur. Uning hududida beshdan ortiq istirohat bog‘lari, skverlar va yashil hududlar mavjud bo‘lib, ular dam olish va sayr qilish uchun juda qulay joylar hisoblanadi.

1996-yilda Nukus shahrida tennis kortining foydalanishga topshirilishi shaharning ijtimoiy-madaniy rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etgan<sup>60</sup>. Bu yerda bir vaqtning o‘zida 15 sport turi bo‘yicha 500 nafar o‘g‘il-qizni sig‘dira oladigan original, zamonaviy sport meneji faoliyat ko‘rsatadi, bu esa yengil atletikachilarga yil davomida mashq qilish imkoniyatini beradi.

---

<sup>58</sup> <https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

<sup>59</sup> Айтмуратов Ж. Культура Каракалпакстана в 70-90 годы: общее состояние и тенденции развития: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1997. – 12 б.

<sup>60</sup> Балалар спорты мақтанышымыз ҳам келешегимиз // Устаз жолы. - 2004, 19 август.

Shaharda Respublika sport saroyi, “Amudaryo” nomli sport-sog‘lomlashtirish majmuasi mavjud. Respublikaning “Turon” nomli bosh stadioni rekonstruksiya qilindi. 600 o‘rinli tennis korti foydalanishga topshirilgan<sup>61</sup>.

Nukuslik yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda madaniyat muassasalari, sport majmualari muhim o‘rin tutadi. Ular o‘z-o‘zini ijodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish va bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Madaniy muassasalar va sport majmualari yoshlarni jalb qiladigan markazlarga aylandi, o‘z-o‘zini kelayotgan yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni ta‘minlaydi.

Ushbu bobning “*Zamonaviy shahar yoshlari ko‘ngilochar tadbirlarining tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari*” nomli ikkinchi paragrafi dala etnografik materiallari tahlili, shuningdek, Nukus yoshlari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov ma‘lumotlariga asoslanadi.

Shaharning yosh aholisi futbol, yengil atletika, basketbol, voleybol, kurash kabi sportning har xil turlari bilan faol shug‘ullanmoqdalar. Ko‘pchilik yoshlar uchun sport bilan shug‘ullanish bo‘sh vaqtlarining muhim qismiga aylangan va shahar muhitida ularning ijtimoiylashuvi va o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishning ajralmas elementiga aylangan: *Mening atrofimda sport bilan shug‘ullanadigan tengdoshlar juda ko‘p. Sport men uchun juda muhim, u sog‘lom va kuchli bo‘lishimga yordam beradi*<sup>62</sup>.

Qoraqalpog‘iston yoshlari futbol, voleybol, basketbol, yengil atletika, kurash, boks, suzish va boshqa ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega. Muntazam o‘tkazilayotgan sport mashg‘ulotlari va musobaqalar nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, balki yoshlarda jamoaviy ruhni, maqsadga yo‘nalganlik, intizom va g‘alabaga intilishni mustahkamlaydi.

Shaharda sport festivallari, turnir va bayramlar muntazam o‘tkazilib kelinmoqda, ular nafaqat mahalliy sportchilarning yutuqlarini namoyish etadi, balki keng yoshlar qatlamini jismoniy madaniyatga faol jalb etish imkonini bermoqda. Masalan, Nukusda o‘tkazilayotgan velomarafon har yili o‘tkaziladigan an‘anaga aylandi. Bundan tashqari, Yoshlar kunida yoshlar o‘rtasida yugurish musobaqalarini o‘tkazish an‘anaga aylangan. 2024-yilda shunday musobaqada 3000 nafar yigit-qizlar ishtirok etdi. Bu tadbirlar sportni ommalashtirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yigit-qizlarda har tomonlama rivojlantirishga intilishni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yoshlarning intellektual hordiq chiqarishi davlat miqyosida turli yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan respublikamiz yoshlari uchun “Zakovat” intellektual klubi tashkil etilgan<sup>63</sup>.

Bayramlar yoshlarning kamol topishi va shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ular yoshlar tarbiyasini insonparvarlashtirishga katta hissa qo‘shmoqda. Ular

---

<sup>61</sup> Мамбетов Б. Актуальные проблемы изучения истории физической культуры и спорта в Каракалпакстане // Вестник ККОАНРУз. – Нукус, 2003. - № 3-4. – В. 160-161.

<sup>62</sup> MDM 2023, № 7. Chimboy tumani, Kunxoja ko‘chasi, 216-uy. Ma‘lumot beruvchi: Embergenov Bobur 2003 yilda tug‘ilgan.

<sup>63</sup> <https://president.uz>

yoshlarda hayotga ijobiy munosabat, jamiyat va madaniyatga daxldorlik, anʼanalarga hurmat tuygʻularini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Keng nishonlanadigan Yoshlar kunidan tashqari, zamonaviy yosh avlod har yili 17-noyabrda Xalqaro talabalar kunini nishonlashga alohida ishtiyoq bilan yondashmoqda. Ushbu bayram talabalar madaniyati va yoshlar jipslashuvining ajralmas qismiga aylandi. Talabalar restoran va kafelarda kechalar uyushtiradilar, bir-birlari bilan tanishadilar, muloqot qiladilar va aloqalarni oʻrnatadilar. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va internetning keng tarqalishi yoshlar oʻtirishlarining virtual shakllarining paydo boʻlishiga olib keldi. Yoshlar onlayn guruh uchrashuvlarini tashkil etish, fikr almashish va qoʻshma oflayn-tadbirlarni rejalashtirish uchun ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn platformalardan faol foydalanmoqda.

Musiqqa festivallari Oʻzbekiston qator muhim vazifalarni bajargan holda yoshlari hayotida muhim rol oʻynaydi. Qoraqalpogʻistonda ham “Stixiya” nomli yoshlar musiqqa bayrami 2024-yil 5-8-iyun kunlari Moʻynoqda boʻlib oʻtdi. Festival dasturiga Orolboʻyi mintaqasini sanʼat, ilm-fan va insoniyatning birligi orqali tiklash maqsadi atrofida birlashgan dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan musiqachilar, dijeylar, prodyuserlar va sanʼatkorlarning chiqishlari kirgan. “Stixiya” festivali doirasida musiqiy chiqishlardan tashqari, ekologik ilmiy forum, master-klasslar, rasmlar koʻrgazmasi, sport oʻyinlari va varrak uchirish kabi tadbirlar oʻtkazilgan.

Shunday qilib, oʻtkazilgan tadqiqot zamonaviy qoraqalpoq yoshlarining boʻsh vaqtlarini oʻtkazishning ham anʼanaviy, ham innovatsion shakllarini uygʻunlashtirgan xordiq chiqarish faoliyatini tashkil qilishdagi afzal koʻrgan narsalarining transformasiyasini aniqlash imkonini beradi.

Bobning uchinchi paragrafi *“Yoshlarning boʻsh vaqtini virtual makonda tashkil etishda ijtimoiy tarmoqlar va bloglarning oʻrni”* deb nomlanadi. Unda yoshlarning virtual makonda boʻsh vaqtini oʻtkazish turlari koʻrib chiqilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda yangi va barqaror madaniy hodisa sifatida oʻzini koʻrsatgan. Ularning mashhurligi oshgani sayin, ular ijtimoiy hayotning turli jabhalariga tobora sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Internet global axborot tizimi oʻziga xos atamalar, qadriyatlar va fikrlash modellari xos boʻlgan “kibermadaniyat”ni keltirib chiqaradigan maxsus kibermakonni hosil qiladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmogʻining keng tarqalishi zamonaviy qoraqalpoq yoshlarining boʻsh vaqtini tashkil etishga katta taʼsir koʻrsatdi. Bu boradagi muhim yoʻnalishlardan biri yoshlar tomonidan virtual makonni, xususan, ijtimoiy bloglarni oʻzlashtirilishi boʻldi. Ushbu platformalar yoshlarga oʻz fikrlari bilan almashish, sevimli mashgʻulotlari, ijodiy ishlari bilan oʻrtoqlashish, hamfikrlar bilan faol muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Oʻz blogini yuritish yoki doʻst va tanishlar bloglarida qatnashish Qoraqalpogʻistonlik yoshlarga oʻz ijodiy qobiliyatlarini roʻyobga chiqarish, tajriba va bilim almashish, dolzarb mavzularni muhokama qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy bloglar virtual makonda ijtimoiy aloqalarni shakllantirish va qoʻllab-quvvatlash uchun muhim kanal boʻlib xizmat qiladi.

Qoraqalpog‘iston yoshlari orasida Telegram, Facebook, Instagram, WhatsApp keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlar hisoblanadi. Yosh avlod ijtimoiy tarmoqlarning eng faol auditoriyasidir, tarmoqlar ularga madaniyatlararo muloqot qilish, turli mamlakatlar va mintaqalardagi odamlar bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatini beradi.

Yoshlarning zamonaviy kundalik hayoti virtual makonga tobora ko‘proq integratsiyalashib bormoqda, bu yerda dam olish va ko‘ngil ochish tobora raqamli shakllarga ega bo‘lmoqda. Virtual muhit dam olishning turli ko‘rinishlari, dam olish infratuzilmasi obyektlari haqida ma‘lumot olish, shuningdek, kerakli ma‘lumot va aloqalarni topish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Nukus shahrida yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov ma‘lumotlariga ko‘ra, eng keng tarqalgan virtual tarmoq jamoalarini aniqlash mumkin. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning 65,6% Telegram messenjeri, 28,5% Instagram xizmati, 0,8% WhatsApp ilovasi foydalanuvchilari hisoblanadi, bunda respondentlarning 5,1% foizi esa “boshqa” ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini ko‘rsatgan. E‘tiborlisi shundaki, so‘rovda ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaydigan birorta ham yosh aniqlanmagan. Bu holat nukuslik yoshlarning virtual makonga keng jalb etilganidan dalolat beradi.

Mintaqada internetdan barcha foydalanishi mumkinligi yoshlarning ham bo‘sh vaqtining, ham ish vaqtining salmoqli qismini onlayn muhitda muloqotda o‘tkazishiga olib kelgan. Ular virtual makondan ma‘lumot, kommunikasiya qidirish, bo‘sh vaqtni tashkil qilish va boshqa maqsadlarda foydalanadilar.

Bundan tashqari, ko‘plab kompyuter va mobil o‘yinlar o‘yinchilarga xabar almashish, audio va video yozuvlar orqali virtual makonda bir-biri bilan muloqot qilish imkonini beradigan ijtimoiy tarmoq komponentlariga ega. Respondent Sultonbek Adenbaevning fikricha, bunday o‘zaro ta‘sir xorijiy tillarni o‘rganish va boshqa mamlakatlar madaniyati bilan tanishishga yordam berishi mumkin: hozir Qoraqalpog‘istonda ko‘plab yoshlar bo‘sh vaqtlarida Dota, Clash of klans, Countre strike, Pubg mobile kabi o‘yinlarni o‘ynaydi va o‘yin davomida ular boshqa mamlakatlar odamlari bilan muloqot qiladilar, ko‘pchilik bunday muloqot tufayli rus va ingliz tillarida gapirishni o‘rgangan va shu yo‘sinda o‘zining tilshunoslik sohasidagi bilimlarini boyitgan<sup>64</sup>.

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o‘rnini ko‘rib chiqishda, shak-shubhasiz, ularning salbiy jihatlarini ham hisobga olish zarur. Eng xavotirli misollardan biri bu ilk bor 2015 yilda Rossiya va MDH mamlakatlarida tilga olingan “Moviy kit” deb nomlangan o‘yindir. Ijtimoiy tarmoqlardagi ushbu yopiq guruh ishtirokchilarni yakuniy bosqichi o‘z joniga qasd qilish bo‘lgan o‘ziga xos “kvest” dan o‘tishga taklif qilgan. Ushbu hodisa keng jamoatchilik e‘tiroziga sabab bo‘ldi va huquqni muhofaza qilish organlarining diqqatini tortdi.

O‘tkazilgan so‘rov va empirik ma‘lumotlar tahliliga yakun yasab, yoshlarni virtual tarmoq jamoalarida muloqot qilishga undaydigan asosiy motivlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi: bilish, kommunikatsiya, affiliatsiya, hamkorlik, rekreatsiya, o‘yin, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish va o‘z-o‘zini tasdiqlash. Ushbu natijalar shundan dalolat beradiki, Internet professional

---

<sup>64</sup>MDM. 2023, № 22. Нукус, 22 мкр uy 3/3, xonadon 13. Axborotchi: Adenbaev Sultanbek. 2005 y. t.

dasturchilar muloqot muhitidan keng ko‘lamli manfaatlarni amalga oshirish makoniga o‘zgargan.

## XULOSA

1. “Bo‘sh vaqt” va “yoshlar” tushunchalari jamiyat ijtimoiy tuzilishi va madaniy hayotining muhim elementlarini ifodalaydi. Dam olish bo‘sh vaqt sohasi sifatida nafaqat xordiq va o‘yin-kulgi funksiyalarini bajaradi, balki shaxsning rivojlanishi, ijtimoiylashuviga va unda madaniy qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlar, o‘z navbatida, dinamik guruh bo‘lib, ularning yosh chegaralari va xususiyatlari faol muhokama va tadqiq qilinib kelinmoqda. “Yoshlar” tushunchasi ta‘rifi va uning jamiyatdagi roliga nisbatan xilma-xil yondashuvlar ushbu hodisaning murakkab va ko‘pqirrali ekanligidan dalolat beradi.

2. Yoshlar nutqida an‘anaviy atamalar bilan birga yangilarining ishlatilishi kuzatilmoqda, ular ham barqaror madaniy qadriyatlarni, ham globallashuv ta‘sirini aks ettiradi. Yoshlarga oid ko‘plab atamalar avlod-dan-avlodga uzatilib kelingan, milliy madaniyatning qimmatli qismi hisoblanadi. Ayni vaqtda globallashuv ta‘sirida yoshlar leksikasida “*bro*”, “*tamir*”, “*dos*” kabi yangi o‘zlashtirilgan so‘zlar paydo bo‘lib, ular an‘anaviy “*jora*” atamasining ma‘nodosh so‘zlari hisoblanadi. Yoshlarning ba‘zi atamalari, masalan, «*náreste*» va «*qurdas*» atamalari hozirgi kungacha uzoq vaqt davomida qo‘llanib kelingan.

3. Qoraqalpoq yoshlarining *ayqulash*, *atkónshek*, *arqan tartısıw*, *gúres*, *juwrısıw*, *ilaq*, *altın qabaq* kabi an‘anaviy o‘yin va ko‘ngilochar tadbirlari qoraqalpoq yoshlari bo‘sh vaqtlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu tadbirlar nafaqat jismoniy va intellektual rivojlanishga yordam beradi, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va madaniy qadriyatlarni avlod-dan-avlodga uzatishda muhim rol o‘ynaydi. Turli o‘yinlarda ishtirok etish orqali yoshlar nafaqat ko‘ngil ochganlar, balki ularda jamoada ishlash, yetakchilik qilish va o‘zaro tushunish ko‘nikmalarini shakllangan, bu esa, o‘z navbatida, turli urug‘-aymoqlar o‘rtasida barqaror munosabatlarni yaratish va jamao birligi mustahkamlashga yordam bergan.

4. *Otirispaq*, *ziyapat*, *meylis* va *geshtek* kabi yoshlar o‘tirishlari an‘anasi yoshlarning madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan, ijtimoiylashuv, madaniy qadriyatlar almashinuvi va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu uchrashuvlar yoshlarga muloqot qilish va ko‘ngil ochish makonini ta‘minlagan. Urbanizatsiya va globallashuv jarayonlari natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarga qaramay, o‘tirishlarning ijtimoiy-madaniy integratsiya instituti sifatidagi asosiy vazifasi saqlanib qolmoqda. Zamonaviy yoshlar o‘tirishlari, garchi o‘zgargan bo‘lsa-da, dam olishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ular yangi sharoitlarga moslashtirilgan an‘analarning mustahkamligini aks ettiradi hamda shaxslararo aloqalar va madaniy merosni saqlab qolish uchun birgalikda vaqt o‘tkazishning muhimligini ta‘kidlaydi.

5. Shahar yoshlarining bo‘sh vaqtini o‘tkazish sohasi yuqori darajada xilma-xillik va tabaqalanish bilan ajralib turadi. Yoshlar bo‘sh vaqtlarini o‘tkazish uchun

keng imkoniyatlarga ega, jumladan, turli ko'ngilochar tadbirlar, o'zini-o'zi ijodiy jihatdan ro'yobga chiqarish, faol dam olish va boshqalar. Shahar yoshlari uchun ko'ngilochar tadbirlar tarkibi ko'p jihatdan zamonaviy texnologiya va medialar ta'siri bilan belgilanadi. Bo'sh vaqtni o'tkazishda afzal ko'rilgan narsalar orasida onlayn ko'ngilochar tadbirlar, video kontentni tomosha qilish, kompyuter o'yinlari va boshqalar muhim o'rin egallaydi.

6. Nukus shahri yoshlarining hordiq chiqarish faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, u ko'p qirrali va dinamik jarayon bo'lib, unda an'anaviy va zamonaviy dam olish shakllari bir-birini to'ldiradi. Oilaviy va kasbiy majburiyatlardan holi o'quvchilik va talabalik davri yoshlarga faollikning har xil turlari orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va ijtimoiylashuvi uchun noyob imkoniyat yaratadi.

7. Sport saroyi, stadionlar kabi obyektlardan iborat zamonaviy sport infratuzilmasi yoshlar o'rtasida jismoniy faollikni ommalashtirishga xizmat qilayotgani yoshlarning sport musobaqalari va festivallarida faol ishtirok etayotgani bilan ham tasdiqlanadi. Misol uchun, har yili Yoshlar kunida velomarafon va yugurish musobaqalari minglab ishtirokchilarni o'ziga jalb etib, sportning bo'sh vaqt va jamoaviy ruhni shakllantirishning elementi sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. "Zakovat" klubi kabi intellektual tadbirlar ham katta ahamiyat kasb etib, yoshlarning bilim va ko'nikmasini yuksaltirishiga yordam beradi. Intellektual o'yinlarda ishtirok etish sog'lom raqobatni shakllantiradi va inson dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

8. Virtual platformalar yoshlarga o'zlarining qiziqishlari bo'yicha guruhlarini shakllantirish, ular uchun muhim bo'lgan mavzular va faoliyat turlari atrofida birlashish imkonini beradi. Bu guruhga mansublik, o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy o'zaro ta'sir qilish ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlar va bloglar yoshlar uchun nafaqat ko'ngil ochish, balki ijtimoiy va shaxsiy muammolarini ham hal etish imkonini beruvchi muhim vositaga aylanmoqda. Chellanjlar va onlayn tanlovlarda ishtirok etish ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni qanday qilib muhim ijtimoiy tashabbuslar atrofida birlashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. An'anaviy hunarmandchilik va madaniy amaliyotlarga yo'naltirilgan bloglar merosni asrab-avaylash va ommalashtirish, shuningdek, yoshlar o'rtasida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, ko'plab ijobiy jihatlarga qaramay, internetga qaramlik va yolg'on ma'lumotlarning tarqalishi kabi salbiy oqibatlarni hisobga olish kerak. Bu chaqiriqlar yoshlar ijtimoiy tarmoqlar taqdim etayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishi va xavflarni minimallashtirishi uchun ta'lim, tarbiya va raqamli savodxonlikka kompleks yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy qoraqalpoq yoshlarining bo'sh vaqtini o'rganish asosida quyidagi **tavsiyalar** taklif etiladi:

1. Yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazishning an'anaviy shakllarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish: Zamonaviy voqelikni hisobga olgan holda *otirispag*, *ziyapat* kabi an'anaviy yoshlar o'tirishlarini qayta tiklash va moslashtirish dasturlarini ishlab chiqish.

2. Anʻanaviy madaniy amaliyotlarni ommalashtirishga qaratilgan festivallar, tanlovlar, master-klasslarni tashkil etish. Anʻanaviy dam olish tadbirlarni oʻtkazish uchun ixtisoslashtirilgan klublar, markazlar va maydonchalarni yaratish.

3. Yoshlar markazlari, klublar, ijodiy studiyalar, sport seksiyalari tarmogʻini rivojlantirish, yoshlarning jamoat, volontyorlik va ekologik tashabbuslarda ishtirokini ragʻbatlantirish.

4. Yoshlarda mediasavodxonlikni rivojlantirish va ularga raqamli texnologiyalardan masʻuliyat bilan foydalanish koʻnikmalarini oʻrgatish.

5. Yoshlarning boʻsh vaqtini tashkil etish sohasidagi tashabbuslarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish mexanizmlarini joriy etish.

Mazkur tavsiyalarning amalga oshirilishi zamonaviy qoraqalpoq yoshlarining boʻsh vaqtini tashkil etish uchun xilma-xil, toʻyingan va barcha foydalana oladigan muhitni shakllantirishga yordam beradi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ  
ИНСТИТУТ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ЖАББАРБЕРГЕНОВ ТИМУР РУСТЕМОВИЧ**

**ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДОСУГА  
СОВРЕМЕННОЙ КАРАКАЛПАКСТАНСКОЙ МОЛОДЕЖИ**

**07.00.07 - Этнография, этнология и антропология**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Нукус – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссией за В2022.2.PhD/Tar 1153.

Диссертация выполнена в Каракалпакском научно-исследовательском институте гуманитарных наук ККОАНРУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Курбанова Земфира Ибрагимовна</b> доктор исторических наук (DSc), профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Давлатова Саодат Тиловбердиевна,</b> доктор исторических наук (DSc), профессор <b>Сейдаметова Гульнара Утарбаевна,</b> доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза</b>

Защита диссертации состоится « 14 » VIII 2025 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/06.04. 2024.Tar.20.05 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230100, г. Нукус, улица Ч. Абдилова, №1. Исторический факультет Каракалпакского государственного университета. Тел.: (99361) 223-60-49; Факс: (361) 223-60-49; e-mail: e-mail: karsu.info@edu.uz)

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована за № 395) (Адрес: 230100. г. Нукус, улица Ч.Абдилова, №1. Исторический факультет Каракалпакского государственного университета. Тел.: (99361) 223-60-49; Факс: (361) 223-60-49)

Автореферат диссертации разослан « 28 » VII 2025 года  
(протокол реестра рассылки за № 12 от « 28 » VII 2025 года).



**М.А. Карлыбаев**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

**Х.М. Отегенов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

**Б.А. Кошанов**  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность темы исследования.** В современном научном дискурсе пристальное внимание уделяется вопросам организации досуга молодежи и трансформации их досугового поведения под влиянием процессов модернизации. Данная проблема находится в фокусе исследований ученых всего мира с середины прошлого века. В последние годы в Европе и США наблюдается усиление интереса к изучению особенностей молодежного досуга. Теоретические работы в этой области, главным образом, сосредоточены на анализе насыщенности повседневного расписания современных молодых людей, а также на трансформации способов проведения досуга в период перехода от детства к юности. Вместе с тем, эмпирические изыскания, раскрывающие эти аспекты, остаются весьма ограниченными.

В современном социальном контексте Республики Узбекистан, где дети и молодые люди в возрасте до 30 лет составляют 60% от общей численности населения, изучение досуговых практик данной социально-демографической группы становится чрезвычайно актуальной научной и практической задачей. В последние годы молодежная тематика находится в центре внимания исследований, проводимых ведущими научными центрами страны.

В рамках социальных наук сформировалось устойчивое представление о молодежи как о единой социально-демографической группе, выделяемой на основе общих возрастных характеристик и проходящей особый процесс адаптации к окружающей социокультурной среде. Вместе с тем, до сих пор ведутся активные научные дискуссии относительно определения возрастных границ молодежного периода.

Исследование традиционных форм досугового общения вызвано необходимостью всестороннего изучения народной культуры, поскольку данный компонент является неотъемлемой частью этнокультурной традиции. Без его тщательного изучения этнографическое исследование той или иной этнической общности может быть признано недостаточно полным. В этом контексте, сфера досугового времяпрепровождения молодежи в Каракалпакстане рассматривается как одно из малоисследованных направлений в области социальной антропологии. Народные праздники, обряды, игры и развлечения, зачастую имеющие глубокие исторические корни, являются неотъемлемой частью культурного наследия региона. Осознание и осмысление гуманистического потенциала, заложенного в этих традиционных формах досугового общения, может стать фундаментом для нравственного и духовного воспитания современной молодежи, способствовать формированию устойчивых моделей поведения, культурных норм и ценностей.

Диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, обозначенных в Законе Республики Узбекистан “О

государственной молодежной политике» от 14.09.2016 г. №ЗРУ 406<sup>1</sup>, Указах Президента Республики Узбекистан от 30 июня 2020 года №УП-6017 «О мерах по коренному реформированию и поднятию на новый уровень государственной молодежной политики в Республике Узбекистан», от 20 января 2020 года №УП-18 «О мерах по совершенствованию системы государственного управления в сфере молодежной политики и спорта»<sup>2</sup>, а также Постановлении Президента Республики Узбекистана от 30 июня 2020 года №ПП-4768 «Об организации деятельности Агентства по делам молодежи», от 7 апреля 2023 года № ПП- 114 «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере молодежной политики и спорта в рамках административных реформ»<sup>3</sup>, от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»<sup>4</sup> и других нормативно-правовых документах.

